

## ANEMAK

### PREPARATINI QO'LLASH BO'YICHA YO'RIQNOMA

#### TARKIBI VA CHIQARILISH SHAKLI

Tabiiy o'simliklar ekstraktidan tarkib topgan, o'ziga xos hidga ega, jigarrang tusdagi (biroz cho'kma va xira ko'rinish bo'lishi mumkin), suyuq qiyom bo'lib, himoyalovchi plombali 100 ml hajmdagi asl flakonlarda qadoqlangan: (1) – himoyalovchi golografik yorliqli karton o'ramlar, (2) – me'yorlash qoshig'i – dozator, (3) – qo'llash bo'yicha yo'riqnomalar.

Tarkibi: 100 ml.

Eleuterokok ekstrakti (Eleutherococcus senticosus)	10mg.
Qichitqi o't ekstrakti (Urtica dioica L.)	10mg.
Mingyaproq ekstrakti (Achillea millefolium L.)	10mg.
Aloe ekstrakti (Aloe arborescens Mill.)	5 mg.
Ittikanak ekstrakti (Bidens tripartita)	5 mg.

Yordamchi moddalar: 100 ml.gacha tozalangan suv, shakar kukuni, 95 % li etil spirti

#### PREPARATNING TA'SIRI

- Preparatni qabul qilish davrida, anemianing klinik va laboratoriya alomatlarini ijobiy tomonga uzgartiradi;
- Temir tanqisligi anemiyasida gemoglobin sintezini kuchaytiradi va organizmda temir tanqisligini qayta tiklaydi;
- Ichaklarda temir so'rilishini kuchaytiradi;
- Temir va noyob aminokislotalarning manbai hisoblanadi;
- Organizmning himoya kuchlarini oshirish hisobiga holsizlik, depressiya, doimiy charchoq, bosh aylanish kabi belgilardan xalos bo'lishga yordam beradi;

#### QO'LLANILISHI

- Anemiya (og'irlilik darajasi turli bo'lgan temir tanqisligi);
- V12 tanqisligi anemiyasi;
- Homiladorlik va laktatsiya davri (homiladorlik va ko'krak bilan boqish davridagi temir tanqisligi profilaktikasi);
- Jismoniy va aqliy rivojlanishning susayishi, jadal o'sishning susayishi;
- Sport va jismoniy tarbiya bilan shug'ullanish, jadal jismoniy mashq;
- Kam ovqat yeyish, noto'g'ri balansli ratsion;
- Tez-tez O'RFVI va O'RK (kompleks terapiya tarkibida);
- Donorlik;
- Turli jarrohlik amaliyotidan keyingi holatlar;
- Surunkali qon ketishlar;
- O'spirin bolalarda va kattalarda (masalan, vegetarian va keksa yoshlilar);
- Oziq-ovqat bilan organizmga kerakli miqdordagi temir moddasini yetkazib berishning iloji bo'limgan bemorlar guruhida, temir tanqisligi anemiyasini davolash va profilaktikasida qo'llaniladi.

#### QO'LLASH MUMKIN BO'LМАGAN HOLATLAR

Preparatning ba'zi tarkibiy qismlariga yakka tarzdagi chidamsizlik.

## **QO'LLASH USULI VA DOZALARI**

Yakka tarzda belgilinadi:

KATTALARGA	4-8 YOSHLI BOLALARGA
5-10 ml.dan kuniga 3 mahal	2.5-5 ml.dan kuniga 3 mahal

Preparat ovqatdan 5-10 minut keyin ichiladi. Davolanish davomiyligi 30 kundan iborat.

## **MAXSUS KO'RSATMA**

Preparatni qabul qilishdan oldin, chayqating.

## **NOJO'YA TA'SIRI**

Preparatning ba'zi tarkibiy qismlariga organizm ta'sirchanligi yuqori bo'lgan holatlarda, allergik reaksiyalar ehtimoli mavjud.

## **PREPARATNING ME'YORDAN ORTIQ QABUL QILINISHI**

Preparatning me'yordan ortiq qabul qilinishi oqibatida paydo bo'ladigan noxush holatlar haqida xabar qilinmagan.

## **BOSHQA PREPARATLAR BILAN O'ZARO TA'SIRI**

Boshqa dori vositalari bilan qo'llanilganda nojo'ya ta'siri kuzatilmagan.

## **SAQLASH SHAROITI VA YAROQLILIK MUDDATI**

Preparat bolalar qo'li yetmaydigan, yorug'likdan himoyalangan joyda +2°С dan +25°С gacha haroratda saqlanishi lozim.

Saqlanish muddati – 24 oy.

Manzil: 1000011, Toshkent viloyati, Toshkent tumani,

Tel.: +998 (95) 195-59-00

E-mail: info@anfa.uz, www.anfa.uz